

## TURKISTONDA 1917-YIL FEVRAL VOQEALARIDAN KEYING IJTIMOIY-SIYOSIY O'ZGARISHLAR

Muallif: Sharofov Sardor Shuxrat o'g'li  
SamDU Tarix fakulteti 4-kurs talabasi

### Annotatsiya

O'rganilayotgan mavzuning dolzarbligi, Turkiston o'lkasidagi 1917-yildagi siyosiy-ijtimoiy hayotidagi o'zgarishlar bayon etiladi. 1917-yil fevral oyida Rossiya podshosi Nikolay II ning taxtdan vos kechgani va Muvaqqat hukumatning hokimiyatga kelganli, ularning Turkistonda yuritgan siyosati, Turkiston ozodligi uchun kurash harakatlarining boshlanishi kabi jarayonlarni tatbiq etadi. Fevral voqealaridan so'ng Turkiston aholisining ozodlik umidlarini bayon etiladi.

**Kalit so'zlar:** Nikolay II, Krenskiy, Kuropatkin, Turkiston Komiteti, Shchepkin, M. Tanishpayev, 1886-yilgi "Nizom", Jadidlar, Siyosiy agent.

Nikolay II ning taxtdan tushirilganligi haqidagi xabar Toshkentga 1917-yil 28-fevral kechqurun yetib kelgan. Ammo Turkiston general-gubernatori Kuropatkin manarxiyani qayta tiklanishidan umidvor bo'lib, bu xabarni oshkor qilmaydi. Ammo 3-mart kuni podshoni taxtdan ag'darilganligi haqidagi telegramma matbuotda bosilib chiqilgandan so'ng uning bu siri fosh bo'ldi.<sup>1</sup> Bu haqidagi xabar dastlab «Туркестанские ведомости» va «Туркестанский курьер» gazetalarida 3-mart kuni, «Ферганские областные ведомости» va «Семиреченские областные ведомости» gazetalarida 4-mart kuni va kaspoyorti viloyati gazetalarida esa 5-mart kuni e'lon qilinadi.<sup>2</sup> Sarosimada qolgan Kuropatkin o'lkani idora qilishni davom ettiradi Ammo 3-mart kuni M.N. Sasnovskiy va N.G. Malitskiy boshchiligida savdo-sanoat vakillari, ziyolilar va 3 nafar temiryo'l hodimlari Kuropatkin bilan uchrashishga keladi. Bir yarim soat davom etgan uchrashuvda Kuropatkin amaldagi hokimiyatning qonuniyligi tan olinsa keyingina tan olinishini bildiradi. General-gubernator podsho hukumatining umri tugab borayotganini anglab delegatsiya vakillari bilan murosa qilishga harakat qiladi va ular bilan kuniga uchrashib turishga va'da beradi. 4-mart kuni Kuropatkin Turkiston harbiy okrugi bo'yicha buyruq chiqaradi. 145-sonli buyruq orqali Nikolay II taxtdan vos kechganligi to'g'risidagi

<sup>1</sup> N.Jo'rayev, Sh.Karimov "O'zbekiston tarixi. (2-kitob)". Toshkent "Sharq". 2011. 7-b

<sup>2</sup> N.A.Abdurahimova, F.R.Ergashev "Turkistonda chor mustamlaka tizimi". Toshkent "Akademiya".2002. 149-b



manifest, 146-sonli buyrug'i bilan esa podshoning ukasi Mixail Ramanov ham taxtdan vos kechganligi to'g'risidagi manifest e'lon qildi.<sup>3</sup>

Kuropatkin shundan so'nggini Toshkent Dumasi vakillariga yangi hukumatni tan olinishi va bu hukumatning o'lkadagi vakili sifatida boshqarishiuni bildiradi. Natijada Turkistonda podshoning taxtdan ketganligini aholi zo'r xursandchilik bilan kutib oldi. Muvaqqat hukumatning hokimiyatini tan olib, Turkistonni Kuropatkin va chor amaldorlari boshqarib kelayotgan edi. Jamiyat hayotida esa o'zgarishlar yo'q edi. Siyosiyat ham Podsho Rossiyasi davridagi boshqaruv uslubi saqlanib qolmoqda edi. General-gubernator vaqtli hukumatning Turkistondagi komissari etib tayinlandi. Kuropatkin bir oy davomida 1886-yildagi "Nizom" bo'yicha o'lkani idora qildi. Lekin Muvaqqat hukumat mamlakatda bir qator demokratik erkinliklar ham e'lon qilishga majbur bo'ladi. Xususan, 3-martda e'lon qilingan Bayonnomasi va 6-martda e'lon qilingan Rossiya fuqarolariga Murojaatnomasida o'z dasturini e'lon qiladi. Dasturda hukumat siyosiy erkinliklar- so'z, matbuot, ittifoqlar tuzish, yig'ilishlar va ish tashlashlar erkinligi joriy etilishi; barcha tabaqa, milliy va diniy cheklashlarni bekor qilinganligini; boshqaruv shakli va mamlakat konstitutsiyasini belgilash lozim bo'lgan hamda umumiy, teng, to'ppa-to'g'ri va yashirin ovoz berish asosida o'tkaziladigan Ta'sis Majlis chaqirishga darhol tayyorgarlik ko'rish; umumiy, yashirin va to'ppi-to'g'ri va teng ovoz berish orqali mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarini saylov o'tkazish; politsiyani esa xalq militsiyasiga aylantirish; to'la siyosiy amnitsiya ( umumiy afv) e'lon qilinishini tantali ravishda e'lon qildi.<sup>4</sup> Lekin bu islohotlarning Turkistonga ta'siri unchalik sezilarli darajada bo'lmadi. Sababi Rossiya imperiyasining milliy chekka o'lkalaridan bo'lgan Turkistonda ma'lum bir o'zgarishlar ro'y bera boshladi. Masalan, o'sha davrdagi adliya vaziri va keyinchalik bosh vazir bo'lgan Kirenskiy Toshkent sud palatasi va okrug sudlari prokuroriga qamoqdagi barcha mahbuslarni ozod qilish haqida farmoyish beradi. Bu paytda turli jinoyatlar qilgan mahbuslar bilan bir qatorda milliy ziyolilar, siyosiy mahbuslar, katorgaga va uy qamog'iga tashlangan, 1916-yildagi qo'zg'alonda ishtirok etgan aholi vakillari ham bore di. Biroq 6-martda berilgan ushbu farmoyish natijasida mustamlaka ma'murlari dastlab turli jallodliklar va aholini talash bilan shug'ullangan mahbuslarni ozod qila boshladi. Aholining turli tabaqalarining talabi bilan keyinchalik boshqa mahbuslar ham ozod qilina boshladi. Amnitsiya to'g'risidagi farmoyish natijasida nafaqat milliy ziyolilar va siyosiy mahbuslar balki aholini talagan mahbuslarni ozod qilish vositasi bo'lib qoldi. 8-

<sup>3</sup> N.A.Abdurahimova, F.R.Ergashev "Turkistonda chor mustamlaka tizimi". Toshkent "Akademiya".2002. 149-b

<sup>4</sup> "O'zbekistonning yangi tarixi (2-kitob)". "Sharq" Toshkent-2000. 22-b



martda esa Turkiston rayon qo'riqlov bo'limi ham tugatish to'g'risidagi buyruq e'lon qilindi. Bu bo'limning boshlig'I polkovnik Volkov va uning yordamchisi Rozalion-Somalskiy boshchiligidagi barcha bo'lim hodimlari qamoqqa olinadi.<sup>5</sup> Turli g'oyalar va demokratik erkinliklar amalga oshirish va bundan keyin Turkistonda demokratik hokimiyatni o'rnatish maqsadida tuli joylarda ko'p ming kishilik mitinglar bo'lib o'ta boshlaydi. Toshkent, Samarqand, Skobelov(Farg'ona), Namangan, Kogon, Qo'qon va boshqa shaharlarda mitinglar bo'lib o'tdi. Podshoning taxtdan ag'darilganligi haqidagi xabar gazetada bosib chiqilgan kuni Toshkentning o'zida katta miting bo'lib o'tdi.<sup>6</sup>

Jadidlar fevral inqilobidan keyin kurash maydoniga chiqishdi. Xalqning siyosiy faolligini oshirish, o'zlarining azaliy orzusi mustaqil demokratik davlat tuzish uchun bel bog'ladilar. Bunda ular xalqning ichida yurib ularga tushuntirish ishlarini olib borishdi. Jadidlar fevral inqilobiga juda katta umid bog'ladilar. Turkistonning turli joylarida inqilobiy harakatlar boshlanib ketadi. Bu mitinglarning asosiy sabablaridan biri joylarda tashkil etilayotgan muvaqqat komitetlari orasida mahalliy aholi vakillarining qatnashmayotganligida edi. Shuning uchun fevral inqilobidan keying dastlabki davrlardan oq turli viloyatlarda mitinglar tashkil qilina boshlandi. Bu mitinglardan yana bir ko'zlangan maqsadlardan biri aholining ijtimoiy jihatdan xar hil tabaqa vakillarini birlashtirish, ularning ongiga jipslashish ehtiyojini uyg'otish,

Turkiston o'lkasida yuqorida sanalgan islohotlarga qaramay og'ir iqtisodiy inflyatsiya va iqtisodiy inqiroz davom etardi. O'lka hukumati bu holatlarga qarshi biror bir chora ko'rmaydi. Keng xalq ommasi ahvoli og'irlashdi, milliy zul ham saqlanib qolindi. Natijada eski hokimiyatni almashtirish va Kuropatkin boshchiligidagi va uning yordamchilarini o'lkani boshqarish ishidan chetlashtirish uchun xalq harakati kuchayib ketadi. 1917-yilning 30-mart kuni Toshkent ishchi va soldat Soveti, musulmon deputatlari Soveti, dehqonlar ittifoqi vakillari va Ijroiyy Komitetning umumiy majlisi qarori bilan Kuropatkin lavozimidan chetlashtirilib uy qamog'iga tashlandi. 4- aprelda Kuropatkin, uning yordamchisi Yerofeyev va okrug shtabining boshlig'i general Siversga Turkiston hududidan chiqib ketishga ruxsat berildi.<sup>7</sup>

Bu voqea Turkistonda hukm surgan Rossiya imperiyasining mustamlakachilik tizimi butunlay yo'q qilingandek bo'ldi. Lekin Kuropatkinning hokimiyatdan ketishi, mahalliy xalq ya'ni turkistonliklarga mustaqillikni qo'lga kiritishiga imkon bermadi. Ularning o'lka boshqaruviga jalb etilmadi. Hokimiyatga

<sup>5</sup> N.A.Abdurahimova, F.R.Ergashev "Turkistonda chor mustamlaka tizimi". Toshkent "Akademiya".2002. 153-b

<sup>6</sup> N.Jo'rayev, Sh.Karimov "O'zbekiston tarixi. (2-kitob)". Toshkent "Sharq". 2011. 7-b

<sup>7</sup> N.A.Abdurahimova, F.R.Ergashev "Turkistonda chor mustamlaka tizimi". Toshkent "Akademiya".2002. 154-b



ruslar qo'liga olishdi. Mahalliy aholi vakillaridan esa o'lka boshqaruviga yaqinlashtirilmadi.

1917-yil 7-aprelda Muvaqqat hukumatning qarori bilan "Turkiston o'lkasida Muvaqqat hukumat 1917-yilning 6-martida butun xalqqa e'lon qilgan asoslarda mustahkam tartib o'rnatish maqsadida va o'lka boshqarish yuzasidan joylarda tug'ilgan masalalarni hal qilish uchun ..." Muvaqqat hukumatning Turkiston Komiteti tuzildi.<sup>8</sup>

Turkiston Komiteti nafaqat Turkiston o'lkasi balki Buxoro amirligi va XIva xonligini nazorat qilish uchun ham tuzildi. Kuropatkin Turkiston o'lkasidan ketganidan keyin Buxorodagi siyosiy agentlar Miller va Shul'ga ham Rossiyaga chaqirib olindi. Ularning vazifalari esa Turkiston komitetitga o'tkazildi. Uning ishida bolsheviklar partiyasidan tashqari boshqa partiya vakillari ham kirgan edi. Turkiston Komiteti raisi etib Petrogradan yuborilgan kadet N.P.Shchepkin, komitetit a'ziligiga 2-chaqiriq Davlat dumasi a'zosi M.Tanishpayev, 1-chaqiriq Davlat Dumasi a'zosi, qozoq burjuaziya yetakchilaridan biri A. Bukeyxonov, 3-chaqiriq Davlat Dumasi a'zosi, tatar burjuaziyasi yetakchilaridan biri S. Maqsudov, kadetlar partiyasi a'zosi general-mayor A. Davletshin, eser O. Shkapskiy, kadet V. Yelpativskiy, qaysi partiya taaluqligi noma'lum G. Proobrajenskiy va Lipovskiylar tayinlandi. Turkkomititet Rossiya imperiyasi hokimiyati ag'darildi. Barcha hokimiyat shu Turkkomititet qo'liga o'tdi.

1917-yil 12-aprelda Turkkomititet ijroiyy komitetlar o'lka qurultoyida N.P.Shchepkin ma'ruzasi bayon etildi. Ushbu dasturga muvofiq Turkistonda boshqaruv quyidagicha tashkil qilinardi; Turkkomititet "O'zini hukumat vazirligi shaklida tashkil qiladi", uning huzurida mahalliy aholi vakillaridan kengashuv organi tuziladi, davlat hokimiyat funksiyalari viloyatlarda Turkkomititet Muvaqqat hokimiyati bilan kelishilgan holda tayinlanuvchi viloyat komissarlariga beriladi, joylarda ularga bo'ysunuvchi va "ishchan aloqa" bilan o'zaro bog'langan uyezd, bo'lis, ovul va uchastka boshqaruvlari tuziladi. Nutqning oxirida Shchepkin boshqaruvni tashkil qilish borasida Turkiston oxirida "Rossiya durdonasiga" aylanishiga ishonch bildirdi.<sup>9</sup> Ammo bu dasturda Turkistonni boshqarishda aniq bir Nizom ishlab chiqilmagan edi. O'lkani boshqarishda yana o'sha eski usullardan foydalana boshladi. Hukumat organlari komissarliklarga eski amaldorlar, sud tizimi vakillari va podsho ma'muriyarti vakillari tayinlana boshladi. Mahalliy aholi vakillari o'lka boshqaruvidan uzoqda tutildi. Ularning masalalari Turkiston

<sup>8</sup> N.A.Abdurahimova, F.R.Ergashev "Turkistonda chor mustamlaka tizimi". Toshkent "Akademiya".2002. 154-b

<sup>9</sup> N.A.Abdurahimova, F.R.Ergashev "Turkistonda chor mustamlaka tizimi". Toshkent "Akademiya".2002. 155-b



komitetining “qandaydir maslahat kengashi” orqali hal qilinadigan bo’ldi. Lekin Turkistonda hammaliy aholi vakillarini saylash uchun kurash boshlandi. Jadidlar joylardagi komissarliklar a’zolarini qaytadan saylash va ular orasiga mahalliy xalq vakillarini ham tayinlashni talab qila boshladi. Bu kurashga ular qattiq bel bog’ladi va 1917-yilda bu borada bir nechta qurultoylar chaqirildi. Taraqqiyparvarlar o’lka boshqaruvini qo’lga olib, milliy davlat tuzish va xalq manfaatlariga xizmat qiluvchi hokimiyatni shakllantirishni o’z oldilariga maqsad qilib qo’yidilar. Bu maqsad yo’lida juda katta ishlarni amalga oshirishga kirishdilar. Natijada Turkistonda Rossiyadagi bo’lgani kabi ikki hokimiyatchilik emas balki uch hokimiyatchilik qaror topdi. Bular:

- Muvaqqat hukumatning Turkiston komiteti
- O’lka ishchi, dehqon va soldat deputatlari soveti
- Jadidlar ya’ni taraqqiyparvarlar faoliyati

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. N.A.Abdurahimova, F.R.Ergashev “Turkistonda chor mustamlaka tizimi”. Toshkent “Akademiya”.2002.
2. N.Jo’rayev, Sh.Karimov “O’zbekiston tarixi. (2-kitob)”. Toshkent “Sharq”. 2011.
3. “O’zbekistonning yangi tarixi (2-kitob)”. “Sharq” Toshkent-2000.
4. H. Ziyayev. O’zbekiston mustaqilligi uchun kurashlarning tarixi. T, “Sharq”, 2001.
5. Jadid taraqqiyparvarlik harakatining g’oyaviy asoslari (ilmiy anjuman) T, “Toshkent islom universiteti”, 2016.
6. Q.Ergashev, H. Hamidov. O’zbekiston tarixi. T, “G’. G’ulom”, 2015.
7. Ahmad Zakiy Validiy To’g’on “Bo’linganni bo’ri yer”. Toshkent. “Adolat”. 1997.
8. M. Cho’qay “Istiqloq jallodlari” Toshkent. G’. G’ulom. 1992.

